



**AYOL BASTAKORLIK IJODIYOTI YOSH AYOL BASTKOR  
GULXUMOR ABDUSAMATOVA ASARI MISOLIDA**

*Yunus Rajabiy nomidagi*

*O'zbek milliy musiqa san'ati instituti "O'zbek maqom tarixi va nazariyasi"  
kafedrasi San'atshunoslik: Musiqashunoslik ta'lim yo'nalishi II bosqich talabasi*

***J.Mahammadjonova***

*Ilmiy rahbar: X.Xaydarov*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada ayol bastakorlik ijodiyoti, ularning milliy musiqa san'atiga qo'shgan hissasi, shu o'rinda yosh bastakor ayol Gulhumor Abdusamatova bastalagan "Nurki Yulduz" asarining musiqiy tahlili so'z yurutiladi.*

**Kalit so'zlar:** ayol bastakor, maqom, ashula, maqom fantaziyasi, milliy ohang.

Milliy maqom san'ati o'zining tarixi va an'analarini bilan bizning hayotimizda muhim o'rin egallaydi. Bugungi kunga kelib ulug' shoir va olimlar, mohir bastakorlar, hofiz va sozandalarning mashaqqatli mehnati hamda fidoyiligi, ijodiy tafakkuri bilan sayqal topib kelayotgan ushbu noyob san'at turi nafaqat yurtimiz va sharq mamlakatlarida, balki dunyo miqyosida ham katta shuhrat va e'tibor qozonmoqda.

Mustaqillik yillaridan boshlab milliy madaniyat va san'atga, ayniqsa maqom san'atiga bo'lgan e'tibor tobora kuchaytirildi. Mustaqillik yillarida milliy maqomni saqlash, o'rganish va ommalashtirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Maqom san'atini yanada rivojlantirish uchun bir necha qarorlar tasdiqlandi. Davlatimiz rahbarining 2017-yil 17-noyabrdagi "O'zbek milliy maqom san'atini



yanada rivojlanish to‘g‘risida”gi hamda 2018-yil 6-apreldagi “Xalqaro maqom san‘ati anjumanini” o‘tkazish to‘g‘risidagi qarorlari tasdiqlandi. Ushbu qarorga muvofiq o‘zbek maqom san‘ati mumtoz va zamonaviy ijro namunalarining oltin fondini yaratish, yosh avlodni maqom san‘ati bilan tanishtirish, mumtoz musiqa namunalarini notaga olish, mavjud yozuvlarni takomillashtirish, maqom yo‘llaridagi asarlarni yaratish, zamonaviy bastakorlik ijodiyotini an‘analariga singdirish va maqomlarning zamonaviy namunalarini yaratish, maqom yo‘nalishidagi ijod qilib kelayotgan bastakorlarni kashf etish kabi dolzarb masalalar ko‘tarilgan.[4] Ushbu qarorlar natijasida “Maqom yo‘llarida yaratilgan eng yaxshi asar” Respublika ko‘rik tanlovini o‘tkazish to‘g‘risidagi qarori tasdiqlangan. Ko‘rik tanlovning asosiy maqsadlaridan biri bu yosh ijrochilarni qo‘llab quvvatlash va milliy musiqamizni targ‘ib qilishdan iborat. Ushbu tanlov 2018 yildan boshlab har yili bir marotaba o‘tkazilib kelinmoqda. Bu ko‘rik tanlov uchun yosh ijodkorlar tomonidan ko‘plab maqom yo‘lidagi yangi asarlar ijod qilinmoqda va har yili qatnashuvchilar soni tobora ko‘payib bormoqda. 2023-yilda ushbu tanlovdagi barcha asarlar jamlanib “Maqom fantaziysi” nomi ostida to‘plam chop ettirildi.

Ushbu ko‘rik tanlov 2024-yil sarhisobida Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san‘ati institutida o‘tkazildi. Tanlovda turli hududlardan kelgan bir nechta bastakorlar qatnashdi. Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san‘ati instituti o‘qituvchisi Gulhumor Abdusamatova ham o‘zining “Nurli yulduz” asarlari bilan qatnashdi.

Ushbu tanlovda qatnashchilar qatorida ayol bastakorlarning borligi sohaga berilayotgan e’tibor qamrovining yaqqol dalili bo‘la oladi. Ayol bastakorlarning ijodiyoti san‘at sohasi rivojida muhim o‘rin tutadi. Yurtimizda ayollarning bastakorlik ijodiyoti bilan shug‘ullanish bosqichlari Mustaqilligimiz qabul qilingan yillardan boshlab maqom san‘atiga bo‘lgan e’tibor yanada rivojlandi. Ushbu davrda maqom yo‘llarida asarlar yozishga e’tibor yanada kuchaytirildi. Ayol bastakorlar ham maqom yo‘llarida asarlar bastalashni boshladi. Ularning ijodiyoti musiqa



san‘atining yanada boyishiga, yangi ohanglarni kelib chiqishiga hizmat qiladi. Ayol bastakorlarning ulkan mehnatlari orqali milliy musiqa an‘analari saqlab qolindi, zamonaviy uslublar o‘zlashtirildi. Ayol bastakorlar erkaklarga nisbatan kamroq e‘tirof etilgan bo‘lsada ularning ijodiyoti yanada boy va badiiy qiymatga ega. Ayol bastakorlarning ijodiga bir nazar solsak ularning soni sanoqli bo‘lsada, o‘zlarining bir necha asarlari bilan o‘zbek bastakorlik ijodiyotida va san‘at ixlosmandlari qalbida chuqur iz qoldirdi. Birinchi o‘zbek bastakor ayoli Zumrad To‘ychiyeva maqom yo‘nalishida bir necha asarlar muallifiga aylandi. Noila Nurimova(Tursunova), Olmaxon Xayitova, Mutabar Yusupova, Dilorom Saidaminova, Zamira Suyunova kabi bastakorlarni asarlarini ham ko‘rishimiz mumkin. Bu bastakorlar milliy musiqa an‘analarini uyg‘unlashtirib, yangi asarlar yaratmoqda. Bugungi kunda ayol bastakorlar turli xil janrlarda ijod qilib kelmoqda.

Gulhumor Abdusamatovaning asari ashula janrida yozilgan. Asarning so‘zi va musiqasi muallifga tegishlidir. Ushbu asarda ustoz Yunus Rajabiyning o‘zbek maqom san‘atidagi o‘chmas yulduzi ekanligini ta‘kidlagan xolda ashula nomini “Nurli Yulduz” deb nomlagan<sup>1</sup>. Gulhumor Abdusamatova bu asarni maqomshunos olim, akademik Yunus Rajabiy xotirasiga bag‘ishlab yozgan. Ijodkor bu asarni yillar davomida bastalab sayqallab kelgan.

Bu asar ilk marotaba Yunus Rajabiy uy muzeyida ijro qilinadi. Yunus Rajabiyning farzandi Xasan Rajabiy va nabirasi Aziz Rajabiylar bilan ushbu asarni tinglashadi va bu asar ustozlarga juda maqlul keladi. Xasan Rajabiy ushbu asarni Yilnomaning keying nashirlariga kiritish taklifini beradilar.

Ustozning ushbu so‘zlaridan to‘lqilangan Gulxumor Abdusamatova ushbu asar ustida ishlab uni “Maqom yo‘llarida yaratilgan eng yaxshi asar ” ko‘rik tanloviiga olib chiqadi. Ushbu ajoyib asar ko‘rik tanlovda maqom yo‘llarida yaratilgan eng yaxshi asarlari ro‘yxatidan joy egalladi.

<sup>1</sup> Muallif bilan suxbatdan.



Ko`rik tanlovda ilk bor yangragan ushbu asar ashula janriga hos bo`lgan daromad, miyonxat, avj, furovard qismlaridan iborat. Asarning musiqiy tahliliga kelsak “Nurli yulduz” ashulasining shakli va rivojlanish tizimi maqom yo’llariga xosdir. Buni biz kuy tuzilishi, lad va usul tizimida ko‘rishimiz mumkin. Asar maqomlarga xos (lya) miksolidiy ladida yozilgan. O‘lchov ritmik asosi esa 6/8 o‘lchovidagi mumtoz usulga asoslangan. ) Ijodkor Ufar usulining 6/8 usulini tanlagani bejis emas. Chunki, o‘ynoqi, sho‘x musiqiy qiyofasini tasvirlashda usul muhim ahamiyatni kasb etadi.

Asar kuyining rivojiga asos sifatida Shashmaqomning ashula bo‘limiga mansub Buzruk maqomi tarkibidagi Saraxbori Buzruk sho‘basi olingan. Asarda Ushshoq namudidan foydalanilgan. Ufari vazmin usulida yozilgan.

### UFARI VAZNIN

The musical notation consists of three staves of music in 6/8 time, C major (two sharps). The first two staves begin with a quarter note followed by a eighth note. The lyrics are:

tan-na tan      nan tan-na tan      nan tan-na tan      nan tan-na tan  
fo - i lo -      tun fo - i - lo -      tun fo - i - lo -      tun fo - i - lun-

tan - na tan      nan tan-na tan nan      tan - na tan -      nan tan-na tan  
fo - i lo -      tun fo - i - lo - tun      fo i lo      tun fo - i - lun

bum-ba-ka bak ka-ba-ka      bum-ba-ka bak ka-ba-ka      bum-ba-ka bak ka-ba-ka      bum-ba-ka bak ka-ba-ka

G. Abdusamatova ushbu asarda Yu. Rajabiyning o‘zbek maqom san‘atining yorqin yulduzi ekanligini ta‘kidlab asar so‘zlarini quyidagicha yozgan:(iloval)

Asarda Shashmaqom tarkibiga kiruvchi Buzruk, Rost, Navo, Segoh kabi so‘zlarni ham ishlatgani bejiz emas, bunda ijodkor Yu. Rajabiyning Shashmaqomni yozib olganini ta‘kidlab o‘tadi.

Bugungi kunda ijodkor, musiqashunos Gulhumor Abdusamatova doktarantura bosqichida tahsil olmoqda va ushbu institutda bir qancha fanlardan dars



beradi. Ilmiy ishlari maqomlar, O‘zbek musiqasi tarixi, bastakorlik ijodiyoti, teatr mavzularida ilmiy ishlarini olib bormoqda Gulxumor Abdusamatova ijodiy faoliyati davomida yaratgan bir qancha asarlari etiborga sazovordir. Bunga misol tariqasida Ziyoda Qobilova ijro etgan “Kumush yo‘llari” asarini ko‘rsatishimiz mumkin. Ustoz musiqa maktablarida ishlash jaroyonida ham estrada jamoalari uchun bir nechta asarlar yaratganlar. Zulfiya Mo‘minova she‘rlariga bolalar uchun “Baxorga zorman” asari vokal yo‘nalishidagi ko‘rik tanlovda g‘olibligni qo‘lga kiritgan. Ijodkorning “Nurli yulduz” asari esa maqom yo‘lida yaratgan ilk asaridir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak ushbu kunlarda maqom yo‘llaridagi yozilayotgan bastakorlik asarlari kelajak avlod musiqa san‘ati ixlosmandlari uchun muhim ahamiyatni kasb etadi. Chunki bu asarlar orqali bizning milliy musiqamiz tobora sayqalanib borayotganini guvohi bo‘lishimiz mumkin. Ayol bastakorlar ijodiyoti nafaqat musiqiy merosimizni yanada boyitadi, balki jamiyatdagi ayollar rolini ham yuksak darajada namoyon etadi. Ularning asarlari o‘z zamonasi ruhi va madaniy an‘anani aks ettirgan holda kelajak avlod uchun ham ilhom manbai bo‘lib xizmat qiladi. Jumladan muallif tomonidan yozilgan asar xalqimiz qalbidan chuqur joy egallab milliy musiqamizni durdonasiga aylanadi degan umiddamiz.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Wikipediya
2. O‘zbek milliy ensiklopediyasi “B” harfi
3. 2017-yil 17-noyabrdagi PQ.
- 4 2018- yil 6-apreldagi PQ.
5. O‘zbekiston kompozitorlari, bastakorlari va musiqashunoslari (T 2018)
6. S. Begmatov “Bastakorlik ijodi” (T 2017)



Nurli yulduz oyning yori  
Goho chertar yurak torin  
Tinglagaymi dilda borin  
Nurli yulduz  
Yunus bobom o'shal yulduz  
Porlar doim, kecha-kunduz  
Maqom xaritasin tuzgan  
Nurli yulduz  
Buzruk, Navo, maqomi Rost,  
Segoh kuyi bo'lib e'zoz  
Bobom edi ohangnavoz  
Nurli yulduz, buyuk ustoz.  
Ohanglari bizga meros  
Musiqamiz topib e'zoz  
Bobom edi buyuk ustoz  
Nurli yulduz.  
Shashmaqomning yuragiga  
Dildan qulqut tutgan bobom  
Ko'p yil avval yurt ravnaqin  
Manbalarda bitgan bobom  
Ohanglari bizga meros